

POP TUMANI VA UNING O'RGANILISH TARIXI

Avg'onova Sabina Tolibjon qizi
SamDU Tarix fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurtimizning go'zal, obod hududlaridan biri – Namangan viloyati Pop tumanining betakror o'tmishi, bugungi hayoti, bu yerda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli yangilanish va bunyodkorlik ishlari tarixi haqida ma'lumotlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Pop tumani, Buyuk ipak yo'li, xitoy manbalari, devoriy suratlar, tarixshunoslik, yodgorliklarning o'rganilishi.

Аннотация: В данной статье собраны сведения об уникальном прошлом одного из прекрасных и процветающих регионов нашей страны – Попского района Наманганской области, сегодняшней жизни, а также истории масштабных ремонтных и созидательных работ, проводимых здесь в последние годы.

Ключевые слова: Попский округ, Великий Шелковый путь, китайские источники, фрески, историография, памятниковедение.

Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysini bog'lab turuvchi bu zamin Buyuk Ipak yo'lidagi muhim maskan sifatida qadimdan o'zining dehqonchilik va sug'orish madaniyati, paxta va ipak matolari, sopol buyumlari hamda boshqa hunarmandchilik mahsulotlari bilan shuhrat qozongan. Bu yerdagi dastlabki sivilizatsiya o'choqlari haqida miloddan avvalgi II asr Xitoy manbalarida ma'lumotlar uchrashi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Pop tumani zaminidagi madaniy hayot nishonalari ming yillar oldin vujudga kelgan – deb aytishga barcha asos mavjud. Markaziy Osiyodagi qadimiy manzilgohlardan biri bo'lgan Munchoqtepa yodgorligi, vodiydagi eng qadimgi shahar Qirqhujra yodgorligi, Qurama vodiysidagi eng qadimgi Mug' tosh o'choqlari, Chodak g'orining devoriy rasmlari hamda suyaklarga ishlangan hayvon va odamlar qiyofalari misolida ham bunga ishonch hosil qilish mumkin.

Pop haqida o'rta asrlarda yozilgan tarixiy asarlarda ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Manbalarda "Pop" atamasining dastlabki ko'rinishi "Bob" shaklida keltiriladi. Arab o'rta asrlar geografiyasi fanining ilk taniqli vakillaridan biri Istahriy (IX-X) Farg'ona vodiysida "Bob" nomli shahar mavjudligini yozib qoldirgan. [1] Qariyb xuddi o'sha davrlarda (taxminan 982-yili) yozilgan "Hudud al-olam" asarida [2] Popga oid quyidagi ma'lumotlarga duch kelamiz: "Bob – atrofida ekinzorlar ko'p, ash-Shosh daryosi bo'yida joylashgan katta va boyliklarga mo'l shahardir. To'rtmuqonda turklarning hujum qilish xavfi bo'lgani tufayli karvonlar u yerda to'xtamay, Bobga borganlar yonidan O'zkand va Xatlom daryolari oqib o'tadi". [3]

Xuddi shu asarning boshqa nashrida: “Yana biri O’zgand, Bob (Pop) shahri, Axsikat, Xo’jand, Banokatdan oqib o’tadi. Choch hududiga yetadi. Sutkand, Parob kabi ko’pgina shaharlardan o’tadi. Jand va Javora yerlariga oqib boradi hamda Xorazm dengiziga quyiladi”. [4]

Yana biri Xatlam daryosi Maniso tog’idan Xallux va Yag’ma o’rtasidagi chegaradan boshlanadi. Xatlam shahridan oqib o’tib, Bob yaqinigacha boradi va O’zgand daryosiga quyiladi. [5] Boshqa arab manbalarida ushbu shaharning geografik joylashuv o’rni haqida ham axborot uchraydi. Ibn Xurdodbeh Bob shahri Turmuqondan uch farsax uzoqlikda joylashgan deb yozgan bo’lsa, Muqaddasiy fikricha, u Axsikatdan 2 barid yoki 4 farsax masofada joylashgan. [6]

Tadqiqotchi Luryenning fikricha, “Pop” atamasini arab va so’g’diy tillardagi manbalarni tahlil qilgan holda ikki xil ma’nodagi so’z deb biladi. Birinchisi “daryo kechuvchi” bo’lib, aynan Pop qal’asini oldida azim Sirdaryodan kechib o’tish mumkin bo’lgan joy ma’nosida qo’llagan. Ikkinchisi “qal’a” degan ma’noni anglatadi. Pop qal’asi tabiiy o’sha davrda atrofi devor bilan o’ralgan qal’a bo’lgan. Manbalarda keltirilishicha, xijriy 118-yili (milodiy 736-yilda) bobliklar va sug’dlar turk xoqonining qo’shini tarkibida arablarga qarshi kurashgan. [7]

Ayrim tadqiqotchilar Istaxriy, Ibn Xavqal, al-Muqaddasiy kabi o’rta asr mualliflarining asarlariga tayangan holda “Pop” atamasi arabcha “darvoza”, “eshik” ma’nosini anglatadi, - deb hisoblashgan. Ular Pop shahri vodiyning g’arb tomonidan kirib kelishdagi birinchi shahar, deb hisoblaydi. [8] Muhammad G’iyosiddin ibn Jaloliddinning “G’iyos ul-lug’at” asarida: “Bob deb arab tilida darvozani aytiladi. Ammo turkiy va forsiy tilda esa mutanosib, muvofiq, loyiq degan ma’nolarni bildiradi” – deb ta’kidlangan. [9]

Biroq qadimiy Pop shahri deb faraz qilingan Qirqhujra yoki Munchoqtepa yodgorliklari shimoliy Farg’ona hududida, vodiyning kirish yo’lagidan ancha shimolroqda joylashgan. Tadqiqotchilar aytgandek bo’lgan-da, qadimiy Popga karvonlar ko’proq Qurama tizmasidagi Qandir yoki Qamchiq dovonlari orqali o’tib kelmas edi. O’rta Osiyoning jumladan F arg’ona vodiysining boshqa joy nomlari ham arab yoki fors tilidan olingan nomlari etimologik ma’nolari asosida talqin qilingan. Arablar bostirib kelmasidan oldin ham bu joy nomlari mavjud bo’lgan. Shuning uchun bu hududdagi joy nomlarining ma’nolarini balki turkiy va shu atrofdagi mintaqalarga keng tarqalgan so’g’diy tildan ham axtarish zarurdir.

Rus sharqshunosi A.N.Bernshtam “Qadimgi Farg’ona” asarida bu fikrni quvvatlab: “Ehtimol, hozirgi Pop qishlog’ining nomi qadimiy, hatto arablargacha ham mavjud bo’lgan bo’lishi mumkin” - deb yozib qoldirgan. [10] “Pop” atamasining paydo bo’lishi haqida xalq orasidagi rivoyatlar va afsonalar hamda shevadagi so’zlarda ham ba’zi ma’lumotlar uchraydi. Tilshunos tadqiqotchi O.Sharipov bu borada shunday deydi: “Pop aholisi o’zining tarixi haqida quyidagicha fikr yuritadi: Xitoy askarlari shu

yerga kelgan ekanlar. Ulardan besh-o'ntasi qarib qolibmiz deb shu yerda qolgan ekanlar. Ular oldingi uyg'urlardan ekan. Bir kuni Pop soyiga chiqib qarasa, yaxshi joy ekan. Ular biz "bop" joy ekan, deb qolgan ekanlar". [11]

Bu misolda "Pop" atamasi turkiydagi "qulay", "bop" ma'nosini anglatmoqda. Tarixiy manbalarda uzoq o'tmishda Xitoy davlati qo'shini Farg'ona vodiysiga bostirib kelgani haqida ma'lumotlar uchraydi. Lekin ularning og'zaki naqlari bilan tarixiy bog'liqligi aniq isbot talab qiladigan holatdir. Shunga qaramay, Pop tumanidagi uyg'urlar bilan bog'liq "Uyg'ur", "Oxunlar mozori" (G'urumsaroyda) va "Bochunyon" (Chodakda) joy nomlari mavjudligi bu rivoyatlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslikni taqozo qiladi. Biroq ular "Pop" atamasining kelib chiqishini aniqlash uchun hozircha hech qanday ilmiy asos bo'la olmaydi. Aksincha tadqiqotchi ular ushbu masala yechimini chigallashtirib yuborishi mumkinligidan ehtiyot bo'lishi lozim.

V.V.Bartold yozishicha Turkistonda Islom dinining tarqalishiga katta hissa qo'shgan allomalar ismiga "bob" so'zi qo'shilgan. [12] Masalan: Langar Bob, Arslon Bob kabi ismlar ham bo'lgan. X asrda Pop shahrida ulug' shayx va donishmand Umar Bob Farg'oniy yashagan. Alisher Navoiy o'zining "Nasoyim ul-Muhabbat" asarida Movarounnahrda yashagan ilm va tasavvuf ahli haqida xabar beradi. Ular orasida Umar Bob Farg'oniyni nomi ham tilga olinadi. [13] Hattoki, Abdurahmon Jomiy ham Umar Bob Farg'oniyni ilm olamidagi salohiyatini tarannum etib she'r bitgan.

Tarix fanida shaharlar va qadimiy aholi maskanlari tarixini o'rganish hamisha dolzarbligini yo'qotmaydigan muhim masaladir. Sovet ittifoqi davrida ham shaharlar va tumanlar tarixini yoritish tarix fanining muhim sohalaridan biri bo'lib qolgan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix insitutida shaharlar tarixi bilan shug'ullanuvchi Maxsus bo'lim faoliyat ko'rsatgan. Ammo Pop tumani Sobiq ittifoq zamonida tadqiq qilinmasdan qolgan edi. Mustaqillik davrida bu masalaga e'tibor ancha jonlandi. Shunday bo'lsa-da, so'ngi vaqtlarda shahar va qishloqlar tarixi haqida chop etilayotgan kitoblarning aksariyati soha talablariga yetarli javob bera olmaydigan past darajadadir. Bunday ahvol avvalo, mualliflarning ko'pchiligi mutaxassis bo'lmagani hamda mavzuni chuqur o'rganishga ilmiy malakasi yetishmasligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston shahar va tumanlari tarixini yoritishda o'ziga xos ilmiy uslubiy yondashuvlar mavjuddir. Biror shahar yoki qishloq tarixini yozayotgan tarixchi bulardan albatta xabardor bo'lishi lozim. Aks holda, tadqiqotchini to'g'ri yo'ldan adashtirib, haqiqiy voqiylikdan uzoqlashtirib qo'yadigan va ilmiylik jihatdan ishonchli adabiyotlar ahamiyatiga putur yetkazadigan "Tarixiy asarlar" maydonga kelaveradi.

XULOSA

Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan bu qadimiy diyor hududiga tutashib ketgan "hayot yo'li" – Qamchiq dovonidan hozirgi kunda "Temir karvonlar" tinimsiz qatnamoqda. Shunga ko'ra, Mustaqil O'zbekistonning ko'hna bir bo'lagi bo'lgan Pop

diyorida azaliy hayot hamon davom etmoqda. Pop tumani bugun ham mirishkor dehqonlar, sohibkor bog'bonlar, qo'li gul hunarmandlar, tadbirkor-u fermerlar, ilm-fan madaniyat va marifat sohasida tolmay mehnat qilayotgan insonlar uchun qulay va betakror makondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Al-Istakhri, Abu Ishak al-Farisi. *Viae regnorum* // Ed. M.J. de Goeje, BGA, I series Lugduni. – Batavorum: E.J.Brill, 1967. – P: 336.
2. Ushbu asarning muallifi hozirga qadar aniqlanmagan.
3. *Hudud al-Alam (the Regions of the World)*. Persian geography // Translated and explained by Minorskyb. – London: 1970. – P: 72-73, 113.
4. *Hudud ul-Olam* // Mas'ul muharrir Mirsodiq Isoqov. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. – B: 9.
5. *Hudud ul-Olam* // Mas'ul muharrir Mirsodiq Isoqov. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. – B: 9.
6. *Hudud ul-Olam* // Mas'ul muharrir Mirsodiq Isoqov. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. – B: 10.
7. At- Tabari, Abu Djafar Mohammed ibn Djarir. *Annales* // Ed. M.J. de Goeje, I series Lugduni. – Batavorum: E.J. Brill, 1964. – P: 1609.
8. Qorayev S. *Geografik nomlar ma'nosi*. – Toshkent: O'zbekiston. 1978. – B: 101.
9. Ro'zinov B., Rajabova S., Ismoilov Yu., Qosimov N. *Namangan viloyati madaniy merosi*. – Namangan: 2013. – B: 12.
10. Бернштам А. Н. *Древняя Фергана*. Изд. АН УзССР. – Тошкент: 1961. – С: 32.
11. Sharipov O. *O'zbek tilining Pop shevasi*. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: 1962. – B: 10.
12. Бартольд В. В. *Сочинения*. Том 5. – Москва: 1967. – С: 118.
13. Alisher Navoiy. *Nasoim ul-muhabbat*. Mukammal asarlar to'plami. XVII jildlik. – Toshkent: Fan, 2001. – B: 149-150.